



## KOSTYUMNI LOYIHALASH - IJODIY FAOLIYAT TURI

**Ergasheva Marziya Ramazonovna**

*Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti*

*Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kostyumni loyihalash - ijodiy faoliyat turi, kompozitsiya xususiyatlari va kompozitsiya vositalari haqida juda yaxshi ma'lumotlar yozilgan. Assimetriya va simmetriya haqida tushunchaga ega bo'lib, yangi uslublar bilan uyg'unlikda juda ajoyib kiyimlarni yaratishda ko'mak beradi, deb o'layman.

**Kalit so'zlar:** Kompozitsiya, simmetriya, assimmetriya, kontrast, lif.

“Dizayn” so‘zi italian so‘zi “disegno”dan kelib chiqadi. Uyg‘onish davrida bu tushuncha bilan ish asosida yotgan loyihalar, rasmlar va g‘oyalarni atashardi.

Dizayn - loyiha faoliyati bo‘lib, yangi turdag'i madaniyat bilan bog‘liq, ya’ni ijodiy faoliyat turi. Bu madaniyat turida ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy madaniyatlar o‘zgacha biriktirildi, zamonaviy fikrlashda loyihalash o‘ziga xos xususiyat bo‘ldi, insonni dunyoda yangi o‘rni hisobga olindi, tashqi muhit bilan bog‘ladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida loyihalash madaniyatini qayta ishlab chiqarishda asosiy usuldir, u turmush tarzni uzlusiz o‘zgarishiga mo‘ljallangan va yangi buyum yaratishda faoliyatning barcha tomonlarini: texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va estetik tomonlarini o‘zaro qamradi.

Dizayn loyihalash faoliyat sifatida jamoa va insonni turli talablarini qondiradi. Dizayn sanoat va san’at orasidagi nomuvofiqlikni yengish lozim: loyihalash madaniyatida go‘zallik va foyda uyg‘unlashadi.

Dizayn - ijodiy loyihalash faoliyat, uning maqsadi - insonni ruhiy va moddiy talablarini to‘liq qondiradigan uyg‘un buyum muhitini yaratish.

Buyumlarga yuqori iste’mol va estetik xossalarni ta’minlaydigan mutaxassis dizayner deb ataladi.

Dizayn tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: dizayn - faoliyat subyekti - dizayner va iste’molchi; dizayn - faoliyat obyekti: dizayn-loyiha va dizayn-mahsulot; muhit - faoliyatning har xil tizimlari.

Dizayn obyektlar sifatida sanoat mahsulotlari, shahar, korxona va yashash muhit element va tizimlari va hokazolari bo‘lishi mumkin.

Loyihalash obyektiga ko‘ra dizayn quyidagi turlarga bo‘linadi:

- industrial dizayni (“A” guruhidagi mahsulotlar - mehnat uchun asbob uskunalar va mexanizmlar, transport va qurol; “B” guruhiga ommabop iste’mol qilinadigan buyumlar, ya’ni idish-tovoq, maishiy uskunalar, mebel);

- me’morchilik muhit dizayni (interyer, me’mor va tashqi muhit dizayni);
- kompyuter dizayni;
- landshaft dizayni;
- artdizayn;
- ijtimoiy dizayn;



- kostyum dizayni;
- matbaa dizayni.

Dastlab dizaynga faqat sanoatga oid loyihalash kirsa, endi unga ko‘pincha yagona namunada yasalgan noyob loyihalar (artdizayn, elita dizayni) ham kiradigan bo‘ldi.

Zamonaviy jamiyatda dizayn ommabop aloqa vositasi ham bo‘ldi, chunki savdo-sotiq orqali ishlab chiqarish va iste’mol qilishni birlashtirdi, talab va taklifni tartibga soldi, aholining xarid qilish qobiliyati aktivligini oshirdi. Buyumni xarid qilganda, iste’molchi faqat o‘z ehtiyojini qondirishgina emas, balki ijtimoiy ramzini ham qondiradi.

Kostyum (ital.costume - odat, urf-odat) - bu yaxlit g‘oya va mo‘ljal bilan biriktirilgan, ijtimoiy, millat, mintaqa, jins, yosh va mutaxassisligini ifoda etadigan elementlarining muayyan tizimi.

Kostyum maishiy an'analar bilan chambarchas bog‘liq, ma’lum mintaqaning urf-odatlarini, konkret tarixiy davmi, xalqni yoki etnosni ijtimoiy holatini, ma’lum shaxsning siyemosini, uning noyobligini ifoda etadi. Kostyuming asosiy funksiyalari qatorida himoya, utilitar va belgi funksiyalari kiradi, chunki kostyum maxsus aloqa turi, ya’ni u atrofdagilarga odam to‘g‘risida ma’lumot beradi: uning ijtimoiy holidan, siyosatga munosabati, estetik didi, dinka mansubligi, madaniyati va boshqalar.

Kostyum quydagi funksiyalarni bajaradi:

- yosh to‘g‘risida ma’lumot beradi, shu bilan birga kostyum inson yoshini ko‘rsatish yoki yashirishi mumkin;
- oilaviy holatini ko‘rsatadi.

Masalan, barcha milliy kostyumlarda yoshidan tashqari uning oilaviy holi aniq belgilangandi: unashtirilgan qiz, uzatilgan qiz, beva va hokazolar.

An'anaviy jamoada shaxsga moyil bo‘lmagan kiyimni kiyish man etilardi. Zamonaviy kostyumda bu funksiya deyarli yo‘qoldi desa bo‘ladi: hozir kostyum bo‘yicha ba’zan oilaviy holi va jinsini bilib bo‘lmaydigan bo‘ldi (uniseks uslubi);

- odamning ma’lum tabaqaga, ijtimoiy sinf yoki guruhga mansubligini belgilaydi, ijtimoiy vaziyatini ko‘rsatadi yoki yashiradi;

- odamning mutaxassisligini ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda Yevropada barcha kasblar maxsus kiyim kiyishgan. Zamonaviy kostyumda bu funksiya harbiy, ishlab chiqarishga oid kostyumda uchraydi va kamroq maishiy kostyumda. Ammo, hozir ham kostyum yordamida ishbilarmonni boshqalardan ajratish mumkin;

- mintaqa iqlimi va unda yashayotgan xalqlarning turmush tarzini hamda milliy an'analarini ko‘rsatadi. Ammo, hozir keng tarqalgan baynalminal uslubi barcha milliy xususiyatlarni yo‘qota boshladi;

- shaxsning ma’lum dinka mansubligi ko‘rsatadi.

Kiyim dizayni - dizayn faoliyatining yo‘nalishlaridan biri.

Kiyish usuli, tanada mahkamlash turi va bichimiga ko‘ra kiyim quydagi turlarga bo‘linadi:

- drapirovalangan (bichilmagan va tikilmagan) - bu bir bo‘lak mato tanaga o‘raladi va drapirova qilinadi (xiton, gimatiy, toga, sari, dxoti va boshqalar);



- qoplama - bu boshdan kiyiladigan kiyim. U tikilmagan-faqat yoqa o'mizi qirqilgan mato parchasi (pancho, penula va boshqalar) yoki tikilgan (tunikasimon bichimli);

- oldi ochiq - bu bichilgan va tikilgan kiyim (chopon va kafitan turida);

- Yevropa turidagi bichilgan va tikilgan - bu odam qomatiga mos bichilgan va tikilgan kiyim.

Zamonaviy kostyumni yaratganda uni asosiy funksiyasini inobatga olish zarur. U kostyumni konstruktiv yechimini, matosini va siymosini belgilaydi. Buyumni loyihalashda bunday yo'l "funksional qadam" deb atalgan, qachonki buyum emas, balki iste'molchiga beradigan foyda ko'zda tutiladi (shu nuqtayi nazardan bashang ko'ylakni emas, balki yaxshi kayfiyatni, go'zallikni loyihalash zarur).

Buyum loyihalanganda funksional qarash uni ishlash jarayonini dastlab o'r ganilgandan so'ng, ideal ishlaydigan tizim yaratiladi va natijada odamni har xil va o'zgaruvchan talablarini qondiradigan prinsipial yangi funksiyani bajaradigan buyum yaratiladi.

Loyihalash obyektiga binoan kostyum kiyim, bosh kiyim, poyabzal, aksessuarlar, bezaklar va boshqa dizayniga bo'linadi. Kiyim iste'mol va ommabop chiqariladigan buyum bo'lgani bois, kiyim dizayneri asosan sanoatga oid kolleksiyalami yaratadi. Bunday mutaxassislarni kiyim dizayneri yoki stilist deb atashadi.

"Kostyum dizayni" tushunchasi hozir umuman kostyum yaratish faoliyatida tarqalgan va faqat sanoatda ishlab chiqariladigan buyumlar uchun emas, balki kutyuryelar ijodida ham uchraydi.

Kostyum dizayni o'ziga xos xossalarga ega. Bu sohadagi professional muammolar syezd va konferensiyalarda muhokama qilinmaydi, dizaynerlarni birlashtiradigan uyushmalari yo'q. Ma'lum darajada bu rolni moda yarmarkalari, pret-a-porte salonlari, yuqori moda haftaliklari bajaradi. Bunda asosiy vazifa - reklama, korxonalar va savdo-sotiq orasida aloqa bog'lash. Yana kostyum dizaynerlar orasida nazariy va manifest turida o'z ijodiy konsepsiyasini ifoda etish an'anasi yo'q. Odatda, dizaynerning konsepsiysi modellar ko'rgazmasi o'tqazilgandan so'ng intervyu yoki press-reliz sifatida beriladi.

Kostyum dizayning obyekti - amaliy mo'ljali va estetik funksiyalardan tashqari bir necha funksiyalarni bajaradigan utilitar buyumdir. Dizayner buyum dunyosini tasvirlamasdan uni yaratadi. Loyiha madaniyatining keljakka intilishi, uning dinamikligi, yangi dunyo siymosini yaratishga maqsad qilib olishi, dizaynning asosiy vazifasini belgilaydi - yangi buyum namunalarini yaratish. Shuning uchun kostyum dizayni odamlaming talablarini va turmush tarzining o'zgarishini inobatga olib, an'anaviy shakllarga bezak bo'lmasdan, kiyimning yangi funksiyalarini loyihalashi lozim.

Ba'zi dizayn tadqiqotchilari dizayn san'atning yangi shakli deb muhokama qiladilar. Bir qaraganda dizayn bilan amaliy san'atni ko'p umumiyligi bor. Ammo, dizayn yangi funksional vazifani yechishni ko'zda tutsa, amaliy san'at mavjud buyumlarga badiiy variantlarini yaratadi.

Gap odam gavdasi tuzilishi bilan bog'liq narsalar haqida bo'lgani uchun bunda shaklning odam figurasi va fazo bilan o'zaro ta'siri muhim shartdir. Bu o'zaro ta'sir xarakteri eng avvalo simmetriya yoki asimetriya bilan aniqlanadi.



30-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA

ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.05.2024




Simmetriya - bu shakl holatini aniqlovchi kompozitsiyaning eng yorqin va ko'zga tashlanuvchi xususiyatlaridan biri, bu shakl tashkil etuvchi vosita, va nihoyat, bu kompozitsiyaning eng faol qonuniyati. Ma'lum bir nuqta, o'q yoki tekislikka nisbatan bir xil joylashgan figuraning bir xil elementlari simmetrik bo'ladi. Figuraning markaz, o'q yoki tekislik atrofida burilishida simmetrik elementlar to'liq mos keladi.

Simmetriya libosda odam figurasi simmetrik shaklining qobig'i sifatida kompozitsiyaning yaxlitligi va badiiy ifodaliligidagi erishishning muhim vositalaridan biri.

Simmetriyaning turli xillari mavjud: oynali, markaziy, tekislikli, o'qli va hokazo. Amaliyotda loyihalashtiruvchi ko'p uchratadigan simmetriya xususiyatlaridan biri simmetrik shakllarda nosimmetriyaning namoyon bo'lishidir. Simmetriyadan cheklanish shaklining buzilishi degani emas.

Asimetrik elementni ratsional kompanovkalashda keyingisi qolgan hajm bilan uzviy bog'lanadi hamda kompozitsion muvozanatga erishiladi, umuman, simmetrik kompozitsiya nozik o'ziga xoslikka va ajiblikka ega bo'la oladi. Asimetrik shakl ham, agarda uning asosida birgalikda asimetrik shaklining kompozitsion muvozanatini aniqlovchi ma'lum qonuniyatlar yotsa, yuqori tashkil etilgan bo'la oladi. Asimetriya kompozitsiyaning o'ziga xos prinsipi sifatida xizmat qila oladi. Asimetrik kompozitsiya odatda yechim, dinamiklikni qayd etish uchun qo'llanadi.



Simmetrik shakl yaxlitligining asosiy sharti - bu uning kompozitsion barqarorligidir. Simmetriya va asimetriyaning mohirona qo'llanishi turli-tuman poyabzal, libos modellarini yaratishga imkon beradi. Mahsulot shakli barcha elementlarining birligi, ya'ni ularning mosligi va bog'liqligi kompozitsiyaning muhim xususiyati va vositasi hamda uning



mavjudligi shartlaridan biridir. Birlik libos kompozitsiyasi xususiyati sifatida san'atning barcha turlari va janrlarida namoyon bo'ldi.

Kompozitsion tashkil etilgan shakl (libosning, poyabzalning, sumkaning yoki umuman libosning) o'z asosiy qismiga yoki kompozitsion markazga ega bo'lib, boshqa tobe qismlar unga bo'ysunadi. Asosiy qism - hamma elementlar o'rtasidagi asosiy, muhim bog'lanishlar to'planish joyi. Shaklning istalgan elementi, uchastkasi kompozitsion markaz bo'la oladi. Kompozitsion markazni turlicha ajratish mumkin: miqdoriy, markaziy joylashuv bilan, sifatli, mazmuniy omil sifatida (masalan, pardozlash). Kompozitsiyaning murakkab ko'rinishlarida o'zaro bog'langan bir necha kompozitsion markazlar bo'lishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ergasheva M.R. - Kostyum kompozitsiyasi va tarixi. Darslik. Buxoro, Durdona. 2021 y.
2. Atayeva, F. (2022). KIYIMLARGA NAMLAB-ISITIB ISHLOV BERISHDA SHAKLNI SAQLASH XUSUSIYATINI YAXSHILASH MAQSADIDA ZAMONAVIY PRESSLARNING ISHCHI ORGANLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(A5), 221-225.
3. Saidova Kh.Kh., DjalolovaD.F., Ergasheva M.R. Promotion of practical trainings for the development of the creative abilities of students in special subjects using foreign methods of foreign education method / European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Европа, Vol. 8 No. 11, 2020. – PP. 73–79. [www.idpublications.org](http://www.idpublications.org).
4. F. Atayeva (2022). KIYIMLARGA NAMLAB-ISITIB ISHLOV BERISHDA SHAKLNI SAQLASH XUSUSIYATINI YAXSHILASH MAQSADIDA ZAMONAVIY PRESSLARNING ISHCHI ORGANLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1 (A5), 221-225. doi: 10.5281/zenodo.7050207
5. SaidovaKh.Kh., KuliyevaD.R., DjalolovaD.F. "Cluster" Theory and Its Peculiarities in Increasing the Competitiveness of the Economy/ The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research USA, Volume 2, Issue 9, 2020. –PP. 51–54. [www.usajournalshub.com](http://www.usajournalshub.com)
6. Allaberganova, A. F. (2022). KIYIMLARGA NAMLAB-ISITIB ISHLOV BERISHDA SHAKLNI SAQLASH XUSUSIYATINI YAXSHILASH MAQSADIDA ZAMONAVIY PRESSLARNING ISHCHI ORGANLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH. Scientific Impulse, 1(2), 117-122.
7. Atayeva Farangiz Allaberganova. (2023). KIYIM ESKIZLARINI CHIZISH (VINTAGE USLUBI). SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI, 6(4), 228–331. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7829730>



8. Allaberganova, A. F. (2022). Improvement of the Design of Working Bodies of Modern Presses to Increase Shape-Saving Characteristics During Moisture-Heat Treatment of Clothes. *Miasto Przyszłości*, 28, 17-19.

9. Allaberganova, Atayeva Farangiz. "Improvement of the Design of Working Bodies of Modern Presses to Increase Shape-Saving Characteristics During Moisture-Heat Treatment of Clothes." *Miasto Przyszłości* 28 (2022): 17-19.

10. Allaberganova, A. F. . (2022). Improvement of the Design of Working Bodies of Modern Presses to Increase Shape-Saving Characteristics During Moisture-Heat Treatment of Clothes. *Miasto Przyszłości*, 28, 17–19. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/549>

11. F. Atayeva (2023). TEACHING STUDENTS TO THE STAGES OF CLOTHING SKETCHING. *Science and innovation*, 2 (B1), 187-191. doi: 10.5281/zenodo.7550705

12. Atayeva, F. (2023). TEACHING STUDENTS TO THE STAGES OF CLOTHING SKETCHING. *Science and innovation*, 2(B1), 187-191.

13. Atayeva Farangiz Allaberganova. (2022). IMPROVEMENT OF THE DESIGN OF WORKING BODIES OF MODERN PRESSES TO INCREASE SHAPE-SAVING CHARACTERISTICS DURING MOISTURE-HEAT TREATMENT OF CLOTHES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7050207>

14. Allaberganova, A. F. . (2023). Pedagogical Approach in Explaining the Steps of Drawing Clothing Sketches to Students. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(2), 69–73. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/57>